ISNN:2181-1296

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА

SAMARKAND STATE UNIVERSITY NAMED AFTER SHAROF RASHIDOV

# ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
SCIENTIFIC JOURNAL

GUMANITAR FANLAR SERIYASI

№ 2/1 (156)
2026

ISSN 2181-1296

# ILMIY AXBOROTNOMA

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК** **SCIENTIFIC JOURNAL**

**2026-yil, 2-son (156/1) GUMANITAR FANLAR SERIYASI**

**Tarix, Falsafa, Huquqshunoslik, Siyosiy fanlar, O‘qitish metodikasi, Filologiya, Pedagogika, Sotsiologiya, Psixologiya**

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

**BOSH MUHARRIR** **R.I.XALMURADOV, t.f.d., professor**
**BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI:** **H.A.XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent**

**TAHRIRIYAT KENGASHI:**

| | | | |
|---|---|---|---|
| M.Q.Muhiddinov | -f.f.d., professor (SamDU) | B.E.Ergashev | -t.f.d., professor (SamDU) |
| Stefano Benazzi | -Bolonya universiteti professori (Italiya) | S.A.Karimov | -f. f. d., professor (SamDU) |
| Simone Mantelini | -Bolonya universiteti professori (Italiya) | M.X.Lutfullayev | -p.f.d.. professor (SamDU) |
| Sh.Y.Ziyodov | -i.f.d. (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi) | A.R.Samadov | -fal. f.d., professor (SamDU) |
| N.U.Arabov | -i.f.d., professor (SamDU) | Sh.A.Hasanov | -f.f.d., professor (SamDU) |
| Hiroaki Huziie | -Osaka universiteti professori (Yaponiya) | B.S.G‘oyibov | -t.f.d., professor (SamDU) |
| B.O.To‘rayev | -fal. f.d., professor (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy- | G.B.Normurodova | -t.f.d., professor (SamDU) |
| A.B.Pardayev | -f. f.d., professor (SamDU) | F.Sh.Rashidova | -t.f.f.d., dotsent (SamDU) |
| O.Yusupova | -f.f.n., dotsent (SamDU) | D.Q.Usmonova | -i.f.n., dotsent (SamDU) |
| O.Qodirov | -p.f.n., dotsent (SamDU) | N.A.Isakova | -f.f.n., dotsent (SamDU) |

**Obuna indeksi** – yakka tartibdagi obunachilar uchun - **5583,**
tashkilot, korxonalar uchun- **5584**

**M U N D A R I J A**
**C O N T E N T S**


| № | Maqola nomi | Article title | Bet/page |
|---|---|---|---|
| **1** | Bakalavriat ta'lim tizimida fizika fanidan mustaqil ta'limni raqamli simulyatsiyalar asosida tashkil etishning ilmiy-metodik asoslari<br>**Amonov B., Umrzoqov F.** | Scientific and methodical foundations of organizing independent learning in physics within the undergraduate education system based on digital simulations<br>**Amonov B., Umrzokov F.** | **5-11** |
| **2** | Роль притч и легенд в контексте художественного произведения. структурообразующаяя функция жанров устного народного творчества (на материале современной узбекской литературы)<br>**Ишниязова Ш.А.** | The role of parables and legends in the context of a literary work. the structure-forming function of genres of oral folk creativity (based on the material of modern Uzbek literature)<br>**Ishniyazova Sh.A.** | **12-17** |
| **3** | Axborotlashgan jamiyatda virtual madaniyat va ijtimoiy tarmoqlar: axloqiy-falsafiy tahlil<br>**Xaydarov X.S.** | Virtual culture and social networks in the information society: an ethical and philosophical analysis<br>**Khaydarov X.S.** | **18-23** |
| **4** | Bilingvizmning kognitiv rivojlnishdagi o'rni va ahamiyati<br>**Xushmurodova Sh. Sh.** | The role and significance of bilingualism in cognitive development<br>**Khushmurodova Sh. Sh.** | **24-29** |
| **5** | Интеграция медиаобразования с курсом химии средней общеобразовательной школы<br>**Исакова Д.Т., Аронбаев С.Д., Аронбаев Д.М.** | Integration of media education with a secondary school chemistry course<br>**Isakova D.T., Aronbaev S.D., Aronbaev D.M.** | **30-35** |
| **6** | Raqamli transformatsiya sharoitida ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik: global tendensiyalar va O'zbekiston kontekstida nazariy tahlil<br>**Ahrorov S.** | Social media addiction amidst digital transformation: global trends and a theoretical analysis in the context of Uzbekistan<br>**Ahrorov S.** | **36-46** |
| **7** | Talabalar bilan "Galogenlar"mavzusini o'rganishda interfaol uslublardan foydalanish<br>**Aminov Z., Aripova M., Murodov X.** | Using interactive methods in teaching the topic "halogens" to students<br>**Aminov Z., Aripova M., Murodov X.** | **47-50** |
| **8** | Ардашир I и основание Сасанидской державы<br>**Зияев О.К.** | Ardashir I and the Foundation of the Sasanian Empire<br>**Ziyaev O.K.** | **51-55** |
| **9** | Geometriya fanini o'qitishda vizuallashtirishning pedagogik-psixologik asoslari va fazoviy tafakkurni rivojlantirish mexanizmlari (Akademik litsey kontekstida)<br>**Xoliqov L.** | Pedagogical and psychological foundations of visualization in teaching geometry and mechanisms for developing spatial thinking (In the context of academic lyceums)<br>**Kholikov L.** | **56-60** |
| **10** | Ingliz va o'zbek madaniyatlarida tabiatning lingvistik tasviri: metaforalar va madaniy qadriyatlar<br>**Shamsiddinova N.F., Ruziyeva S.A.** | Linguistic representation of nature in English and Uzbek cultures: Metaphors and cultural values<br>**Shamsiddinova N.F., Ruzieva S.A.** | **61-68** |
| **11** | O'quvchi yoshlarning istiqbol hayot rejalarini belgilashda ijtimoiy raqobatning o'rni<br>**Abduvaliyev F.** | The role of social competition in shaping the future life plans of students<br>**Abduvaliev F.** | **69-74** |

| № | Maqola nomi | Article title | Bet/page |
|---|---|---|---|
| **12** | Umumiy o‘rta ta’lim tizimida hr texnologiyalar va pedagoglarni boshqarishning singapur tajribasi<br>**Turikova L.M.** | HR technologies and singapore’s experience in managing educators within the general secondary education system<br>**Turikova L.M.** | **75-79** |
| **13** | Dafn marosimlarining an’anaviy va zamonaviy talqini<br>**Kamalova D.** | Traditional and modern interpretations of funeral rites<br>**Kamalova D.** | **80-84** |
| **14** | O‘zbek va ingliz tillarida predloglar va bog‘lovchilarning sintaktik vazifalarining qiyosiy tadqiqi<br>**Rasulova I.I.** | A comparative analysis of the syntactic functions of prepositions and conjunctions in uzbek and english languages<br>**Rasulova I.I.** | **85-89** |
| **15** | Mustamlaka davrda samarqand “Yangi shahar” qismining me’moriy qiyofasi<br>**Ergashev B.E., Davronova Z.P.** | Architectural appearance of the «new city» part of Samarkand in the colonial period<br>**Ergashev B.E., Davronova Z.P.** | **90-96** |
| **16** | Ingliz va o‘zbek paremiologik birliklarida “Bilim” tushunchasining amalga oshirilishi<br>**Rofeyeva Sh. D.** | The realization of the concept of "Knowledge" in english and uzbek paremiological units<br>**Rofeyeva Sh. D.** | **97-103** |
| **17** | Ingliz va o‘zbek maqollarida son kategoriyasi: ko‘chma, ijtimoiy va falsafiy ma’nolarning qiyosiy tahlili<br>**Usmanov S.B.** | The category of number in english and uzbek proverbs: a comparative examination of figurative, social, and philosophical meanings<br>**Usmanov S.B.** | **104-110** |
| **18** | So‘z tartibi va sintaktik bog‘lanishlarning qiyosiy modeli: svo va sov tizimi (Fransuz va O‘zbek tillari misolida)<br>**Eshmurodova Z.R.** | Comparative model of word order and syntactic connections: SVO And SOV system (on the example of the French and Uzbek languages)<br>**Eshmurodova Z.R.** | **111-115** |
| **19** | Samarqandning kulollik xumdonlarining texnologik va hududiy tahlili (XI–XIII asr boshlari)<br>**Nazarov A.A.** | Technological and spatial analysis of pottery kilns of Samarkand (11th – early 13th centuries)<br>**Nazarov A.A.** | **116-124** |
| **20** | Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida moduyar arifmetika tushuchalarini o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarni tadqiqot faoliyati usullarini shakllantirish<br>**Jurakulov M.S.** | Developing student research methods in teaching modular arithmetic concepts in school<br>**Jurakulov M.S.** | **125-132** |
| **21** | Raqamli ta’lim platformalaridan foydalanish metodlari<br>va vositalari<br>**Aminov I.B., Abdusobirova M.** | Methods and tools for using digital educational platforms<br>**Aminov I.B., Abdusobirova M.** | **133-140** |
| **22** | Ingliz va o‘zbek tillaridagi biznes kommunikatsiya formulalarining lingvo madaniy tadqiqoti<br>**Xolboyeva F.A.** | Linguacultural study of business communication formulas within the context of the english and uzbek languages<br>**Kholboeva F.A.** | **141-147** |

**UDK: 378.22:007.2** https://doi.org/10.59251/2181-3973.2025.v1.138.1.3899

# O‘QUVCHI YOSHLARNING ISTIQBOL HAYOT REJALARINI BELGILASHDA IJTIMOIY RAQOBATNING O‘RNI

**F.Abduvaliev**
I.Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent, O‘zbekiston.

**F.Abduvaliev**
I.Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent, O‘zbekiston.

Kelib tushgan: 01.03.2026
Ko‘rib chiqildi: 12.03.2026
Qabul qilindi: 18.03.2026
Nashr qilindi: 30.05.2026

Nashriyotchi: Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti.

**Annotatsiya.** Maqolada muallif o‘quvchi yoshlar mavzusini ko‘tarar ekan, uni alohida sotsiologik tadqiqot obyekti sifatida yoritadi. Ilmiy manba va adabiyotlarda yuqori sinf o‘quvchilarining ijtimoiy yoki psixologik qiyofasi bilan bog‘liq o‘nlab tadqiqot ishlari yuzasidan fikr-mulohazalar bildirilgan bo‘lsa-da, bitiruvchi sinf o‘quvchisi va uning ijtimoiy-ma’naviy qiyofasi muammosi bo‘yicha jiddiy ilmiy yondashuvlar kam bo‘lganligiga e’tibor qaratish mumkin. Muallif uzoq yillik o‘z tadqiqotlari natijalariga asoslanib bitiruvchi sinf o‘quvchilarining ijtimoiy qiyofasi va ijtimoiy kayfiyati bilan bog‘liq xususiyatlarni bugungi kun turmush tarzidagi o‘zaro munosabatlar tizimida yoritadi. Bitiruvchi sinf o‘quvchisining istiqbolli mo‘ljal olish strategiyasini tadqiq etish zamonaviy sotsiologik tadqiqotlar uchun bugungi kunning dolzarb masalasiga aylandi. O‘quvchi yoshlarning o‘ziga xos alohida jihatlarga ega murakkab ijtimoiy guruhni tashkil etadi. Bu esa o‘z navbatida ularning ijtimoiy xarakterini tavsiflashga xizmat qiladigan istiqbol maqsadlarni belgilab beradigan ustuvor vazifalarni aniqlashni talab etadi.

**Kalit so‘zlar:** o‘quvchi yoshlar, mehnat unumdorligi, samaradorlik, raqobatbardoshlik, ta’lim, mehnat, istiqbol reja, ijtimoiy hayot.

## Роль социальной конкуренции в определении жизненных планов учащейся молодёжи

**Аннотация.** В статье автор поднимает тему учащейся молодежи, освещая её как особый объект социологического исследования. Несмотря на то, что в научных источниках и литературе представлены десятки исследований, связанных с социальной или психологической характеристикой старшеклассников, обращает на себя внимание недостаток серёзных научных подходов к проблеме выпускника и его социально-духовного облика. Опираясь на результаты многолетних исследований, автор раскрывает особенности, связанные с социальной характеристикой и социалным настроем выпускников, в системе межличностных отношений современного образа жизни. Изучение стратегии перспективной ориентации выпускников превратилось в актуальную задачу современных социологических исследований. Учащаяся молодежь представляет собой сложную социальную группу со своими характерными особенностями. Это, в свою очередь, требует определения приоритетных задач, задающих перспективные цели и служащих для характеристики их социального облика.

**Ключевые слова:** учащаяся молодеж, производителност труда, эффективност, конкурентоспособност, образование, труд, перспективный

план, социалная жизн.

**The role of social competition in shaping the future life plans of students**

**Abstract.** In the article, the author addresses the topic of student youth, presenting it as a distinct object of sociological research. Although numerous studies in scientific sources and literature have expressed opinions regarding the social or psychological image of high school students, there has been relatively little serious scientific attention paid to the issue of the graduate student's social and spiritual profile. Based on the results of his long-term research, the author highlights the characteristics related to the social image and social mood of graduating students within the system of interpersonal relations in today's lifestyle. The study of the strategy of future orientation among graduating students has become a pressing issue for modern sociological research. Student youth represent a complex social group with specific distinctive features. This, in turn, requires identifying priority tasks that define their prospective goals and serve to describe their social character.

**Keywords:** student youth, labor productivity, efficiency, competitiveness, education, labor, future plans, social life.

**Kirish.** Inson hayotining hamma sohasi raqobat fenomenining kirib kelganligi bilan namoyon bo‘ladi. Har qanday raqobatbardoshlik negizida mehnat yotadi. Iqtisodchi olim Q.Abdurahmanovning fikriga ko‘ra: “Mehnat – insonning muayyan ehtiyojlarini qondira oladigan va o‘ziga kerak bo‘ladigan moddiy yoki ma’naviy ne’matlardan iborat buyum, tovar, xizmat, fan, madaniyat, san’at asarlari va hokazolarni ishlab chiqarish bo‘yicha ongli, maqsadli va taqiqlanmagan faoliyatidir” [1; 54]. Individ raqobat jarayoni to‘g‘risida o‘ylar ekan, buning uchun avvaldan qilishi kerak bo‘lgan mehnatning zarurati va olinadigan samarani ongli ravishda tahlil etadi. Ongsizlik, ya’ni instinktiv harakatga asoslangan mehnat bilan natijaga erishib bo‘lmaydi. Har qanday inson o‘zidagi istiqbol hayot rejasini amalga oshirishdan oldin ilgari surmoqchi bo‘lgan harakatlarining algoritmini tizimga soladi. Deylik, ishlab chiqarish mahsulotining qaysi shakliga murojaat qilish, yoki chuqurlashtirilgan ta’lim olish uchun qanday manbalardan foydalanish, o‘z imkoniyatlarini namoyon etish uchun munosib bo‘lgan universitetni tanlash va h.z.

Har qanday inson o‘z kelajagi haqida o‘ylaganda, hayotidagi muhim voqealar, undagi o‘zgarishlar, turmush tarziga ta’sirini tahlil qilar ekan, mavjud bilim va imkoniyatlari orqali istiqbol rejalarni amalga oshiruvchi shaxsiy xususiyatlarni baholaydi. U turli vaziyatlarni tahlil qilish orqali, keyinchalik o‘z hayotidagi keyingi o‘zgarishlarni prognozlash qobiliyatiga ega bo‘lib boradi. Biroq, uning davriy yo‘nalish va hayotiy strategiyalari faqat tahlilga asoslanmaydi, chunki insonning bevosita o‘ziga bog‘liq bo‘lmagan tabiiy hodisalar kutilmaganda butun bir belgilangan ijtimoiy mavqe va rejalarni o‘zgartirib yuborishi mumkin. Shunday bo‘lsa-da, kelajakka bo‘lgan intilish, yangitdan istiqbol rejalarni tuzish va shaxsning hayotiy strategiyasini qurishda davom etadi.

Mehnatning inson va jamiyatni taraqqiy ettirishdagi roli raqobatchilik jarayonida nafaqat odamlarning ehtiyojlarini qondirish, balki mo‘ljallangan moddiy va ma’naviy ne’matlarni takomillashtirishga ham qaratiladi. Bunda yangi bilimlar, ko‘nikmalarga asoslangan mahorat, iste’dodni namoyon eta oladigan kasbiy tasavvurlar aks etadi. Rivojlangan jamiyatlarda atrof-muhit bilan bo‘ladigan raqobatlashish deyarli bolalikdan boshlanadi, balkim bog‘cha yoshidan. Yoshlar o‘rtasida raqobat jarayonlari, ayniqsa, shaxs darajasi o‘rtasida namoyon bo‘ladi: oldinga intilmoq, o‘zini yaxshi tarafdan namoyon qilmoq, moddiy tarafdan ahamiyatli rag‘batlanmoq, jamoatchilik tomonidan tan olinmoqdir. Axborotlashgan jamiyatda esa guruhlararo va avlodlararo raqobat ham kuchayadi. Kichik shahar, posyolka va qishloq yoshlari uchun butunlay boshqacha vaziyat vujudga keladi. Jamiyatdagi raqobatli vaziyatni optimallashtirish imkoniyatini baholash va bashorat qilish

mavjud sotsial institutlardagi yaxlit regulyatsiya mexanizmlarini tahlil qilish va aniqlashni taqozo etadi.

**Asosiy qism.** Raqobatni o‘rganish va uning xususiyatlarini aniqlashda XVII asrdan boshlab ko‘p mualliflar shug‘ullana boshlashgan. Xorijiy tadqiqotchilar iqtisodiyot, menejment, ijtimoiy falsafa, huquqshunoslik va biologiyaga oid asarlarida raqobat muammosi, turli hamjamiyat va mamlakatlardagi sanoat korxonalari, firma, korporatsiya va ijtimoiy va iqtisodiy institutlaridagi raqobat ustuvorligiga e’tibor qaratganlar. Bir qator tadqiqot ishlari firma, milliy iqtisodiyot va korxonalar raqobatbardoshligi, muammolarning turli aspekt muammolariga bag‘ishlangan. Ye.Yasin va A.Yakovlev iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va raqobatbardoshlik o‘rtasida aloqa mavjudligiga ahamiyat beradi [2; 67]. “Raqobatbardoshlik – raqobatchiga nisbatan mijozlarning ma’lum ehtiyojini barqaror qondirish imkoniyati va shu tufayli ishlab chiqaruvchi uchun muvofiq moliyaviy natijalar bilan mahsulotni muvoffaqiyatli sotishdir” [3; 251]. Ushbu ta’rifda raqobatbardoshlikning uchta asosiy komponenti to‘g‘risida fikr yuritiladi. Birinchisi, bu mahsulot bilan bog‘liq bo‘lib, asosan uning sifati bilan bog‘liq. Ikkinchisi, ishlab chiqarish sharoiti mahsulot servisi va sotish bilan bog‘liq. Uchinchidan, u reklama, rag‘batlantirish vositasi, firma imidji, mahsulot belgisi, qadoqlash, kafolat va boshqalarni aks ettiradi [4; 87]. Shunday qilib raqobatbardoshlik jamiyat faoliyatida iqtisodiy kontekstda ishlatiladi, unga nisbatan ijtimoiy-falsafiy yondashuv inkor etiladi. Shunday qilib raqobatbardosh tushunchasi mahsulotlar, ularni ishlab chiqarayotgan korxona va firmalarga nisbatan ishlatiladi, shaxsga nisbatan ushbu tushuncha ishlatilmaydi.

Ijtimoiy raqobat – asosiy sotsiologik kategoriya kundalik hayot tahlilining muhim predmeti bo‘lishi lozim. U makro va mikrodarajadagi tahlilni: kishilarning hulq-atvori, ommaviy jarayonlar, madaniyat, ijtimoiy institut, hokimiyat va mulkchilikka bo‘lgan munosabatni o‘zgartiradi. Raqobat boshqaruv funksiyalarini, ijtimoiy rollar va kutishlarni birlashtirib, ijtimoiy harakat sifatida jamoaviy xaraterga ega. Bu ijtimoiy-muhim harakatlar yig‘indisi, uning yordamida shaxs yoki guruh boshqa odamlarning yoki qatlamlarning xulq-atvorini, qarashlarini va fikrlarini o‘zgartirishga yoki hayotga tadbiq etishga harakat qiladi. Harakatlar yig‘indisi “ijtimoiy jarayon”ni tashkil etadi, u ijtimoiy evolyusiyaning umumiy tendensiyasini belgilaydi (genezis, faoliyat, o‘zgarish, rivojlanish).

Sotsiologiyada sotsial hamkorlikning ikki shakliga raqobat va ziddiyat o‘rtasidagi farqqa e’tibor qaratilgan. Ular o‘rtasidagi farq shundan iboratki, raqobat - bu individlar va individlar guruhi o‘rtasidagi kurashni aks ettiradi, ular bir-birlari bilan munosabatda yoki aloqada bo‘lishlari shart emas, ziddiyatlar esa qarama-qarshilikni taqozo etadi, kommunikatsiya yoki aloqa majburiy shartidir, ya’ni ziddiyat vaqtinchalik va shaxsiy xarakterga ega [5; 43]. Rossiyalik psixolog L.Mitina shaxsning raqobatbardoshligini psixologik nuqtai nazardan ko‘rib chiqib, shaxs raqobatbardoshligini tashkil etuvchi xarakteristikasi ya’ni salohiyatiga e’tibor qaratadi. Salohiyat zamonaviy kishining umumiy madaniyati ahamiyatli elementini tashkil etadi va u o‘z ichiga ilmiy fundamental bilimlar, mahorat, sotsiumdagi o‘zaro hamkorlik va xulqning madaniy namunalarining mavjudligi asosini tashkil etadi [6; 152].

Mavjud adabiyot tahlili shuni ko‘rsatadiki, shaxs raqobatbardoshlik tadqiqoti noaniq yoki kam uchraydigan xarakterga ega, shaxsning raqobatbardoshligi jamiyat ijtimoiy munosabatlarining ishlab chiqarishda, mustahkamlanishida va jamiyat transformalashuvi jarayonida shaxs qobiliyatini amalga oshirishda ahamiyatli rol o‘ynashiga qaramasdan sotsiolgiya ushbu muammo bilan amalda shug‘ullanmaydi.

Raqobat sotsial jarayon sifatida iqtisodiy sotsiologiya doirasida o‘rganiladi, uning bir yo‘nalishi V.Radaev tomonidan ishlab chiqilgan bozor sotsiologiyasidir. “Raqobat bu ikki yoki undan ortiq bozor ishtirokchisi bo‘lib, ular tomonidan kirish mumkin bo‘lgan ma’lum bir harakatlar natijasida chegaralangan resurslarga ega bo‘lishdir” [7; 320].

Zamonaviy yoshlarning muammolari, ularning hayotiy strategiyasi va yo‘li, qadriyat va ustuvor yo‘nalishlari ilmiy adabiyotlarda faol o‘rganilmoqda. Yoshlarning sotsial rivojlanishi turli aspektlar tahlili asosida maxsus sotsiologik nazariyalarda aks etadi: ijtimoiy o‘z o‘rnini aniqlash, ijtimoiylashuv, madaniyatshunoslik konsepsiyasi, ijtimoiy professional mobillik, ta’lim strategiyasi va h.k. Zamonaviy yoshlarning ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonidagi o‘rni va “qaltis jamiyat” konsepsiyasi Yu.A.Zubok va V.I.Chuprovning bir qator tadqiqotlarida ko‘rib chiqilgan [8; 18].

Bu sohada samarali natijaga erishishning muhim shartlaridan bo‘lib keng jamoatchilik o‘rtasida ilm-fanning mamlakatimiz kelajagi uchun nechog‘li katta ahamiyatga ega ekanligi, yuksak

milliy taraqqiyot va taraqqiy etgan davlat sifatida shakllanishimiz va dunyoga tanilishimizning eng samarali yo‘llaridan biri aynan millatimizning ilmiy, ma’naviy-axloqiy salohiyati ekanligini keng targ‘ib etishimiz lozim bo‘ladi.

Inson tug‘ilgan kunidan boshlab o‘zi va o‘ziga o‘xshaganlar bilan raqobatlashishiga majbur. J.J.Russo o‘zining “Tengsizlikning kelib chiqishi to‘g‘risidagi mulohazalar” asarida, raqobatlashish va ajralib turishga bo‘lgan ehtiros uchun biz o‘zimizda mavjud bo‘lgan bilimlar, nuqsonlar, ezguliklardan foydalanamiz – deydi. V.M.Bexterevning so‘zlariga ko‘ra, “har qanday jamiyat raqobat, kurash va qarama-qarshilikdan o‘zini olib qocholmaydi, aksincha uning kelajakdagi yutuqlari va takomillashuvi ularga bog‘liq”. Raqobat jamiyatning rivojlanishi uchun muvofiq sharoitlar yaratib beradi, shu bilan birgalikda u ijtimoiy tengsizlikning o‘sishiga olib keladi.

Biz bilamizki, ota-bobolarimiz yoshlarni sog‘lom baquvvat va irodali bo‘lishlari uchun kurash, ot choptirish, ko‘pkari kabi xalq o‘yinlariga bolalikdanoq jalb qilib, ularni raqobat muhitida haqiqiy mard bo‘lib o‘sib ulg‘ayishlari uchun zamin hozirlaganlar. Rivojlangan shahar jamiyatida ham ko‘pchilik uchun raqobatlashish deyarli bolalikdan boshlanib, o‘ziga qarama qarshi jinsdagi juftini tanlash, o‘zini namoyon qilish, moddiy ta’minlanganlik, jamoatchilik tomonidan tan olinish va h.k. holatlarda namoyon bo‘ladi. Guruhlar va avlodlar o‘rtasida ham raqobat ham kuchayadi. Kichik shahar va qishloq yoshlarida bu jarayon butunlay boshqacha kechishi ham mumkin. Jamiyatdagi mavjud sotsial institutlarning tartibga solish mexanizmlari majmuasini aniqlash va yaxlit holatda tahlil qilish raqobat jarayonini bashorat qilish va maqbul holatda saqlash uchun yordam beradi.

XXI asrning birinchi o‘n yilligida jamiyatimizda iqtisodiy sog‘lomlashish, bozor iqtisodiyoti sharoitida inson manbai uchun raqobat avj oldi. Unchalik boy bo‘lmagan aholining ichki va tashqi mobilizatsiyasi kuchaydi. Mazkur sharoitda yosh avlodga uzatilayotgan ta’lim sifatini o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Sifatli ta’lim nafaqat alohida bir inson uchun, balki umuman jamiyat uchun foydalidir. Uning sharofati bilan har bir shaxs biznesda yaxshi faoliyat olib borish, siyosiy va madaniy sohada ancha yaxshi mavqeni egallashi uchun umid qilishi mumkin. Ta’lim tizimi tufayli mamlakat yuqori malakali ishchi-xizmatchilarga ega bo‘ladi. Bu esa o‘z o‘rnida mehnat unumdorligini oshirishga, yangi texnologiyalarni jalb qilishga, ijtimoiy taraqqiyotda oldingi marralarni egallashga olib keladi.

Jahon hamjamiyati barcha davlatlar budjetida ta’lim yuqori o‘rinda turishi kerak degan qarorga keldi. Ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarda ta’lim taraqqiyoti uchun davlat tomonidan ajratilayotgan mablag‘ salmoqli o‘rinni egallaydi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa ushbu mablag‘ o‘n barobar kamroqni tashkil etadi, o‘rtadagi nomuvofiqlik esa yildan-yilga ortib borayotir. Ta’lim natijasi bilan rivojlangan mamlakatlar yalpi milliy mahsulotning 40 % ortishiga erishmoqda. Aslini olganda, ekspertlarning tan olishlaricha, ta’lim taraqqiyoti uchun ajratiladigan salmoqli sarmoyalar o‘zini oqlay oladigan sohaga pul sarflashni anglatishini ta’kidlash joiz.

Sotsiologiyada sotsial hamkorlikning ikki shakli bo‘lgan raqobat va ziddiyat o‘rtasidagi farqqa e’tibor qaratiladi. Ular o‘rtasidagi farq, raqobat - bu individlar yoki individlar guruhi o‘rtasidagi kurashni aks ettirib, ular bir-birlari bilan aloqada bo‘lishlari yoki fikr almashishlari shart emas, ziddiyatlar esa bahsli holatni taqozo etib, vaqtinchalik va shaxsiy xarakterga ega va aloqada bo‘lish yoki fikr almashish shart sanaladi [9; 51]. Psixolog olima L.Mitina shaxsning raqobatbardoshligini psixologik nuqtai-nazardan ko‘rib chiqib, uni tashkil etuvchi xarakteristikasi, ya’ni kompetentligiga e’tibor qaratadi. Kompetentlik jamiyatdagi o‘zaro hamkorlik va xulqning madaniy namunalari mavjudligi, ilmiy fundamental bilimlarni egallash, mahorat kabi xususiyatlarni o‘zida mujassamlaydi va zamonaviy inson umumiy madaniyatining ahamiyatli elementi sanaladi [10; 14].

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, shaxs raqobatbardoshligi noaniq yoki kam uchraydigan xarakterga ega bo‘lib, jamiyat sotsial munosabatlarining o‘rnatilishida, mustahkamlanishida va jamiyat transformatsiyalashuvi jarayonida shaxs qobiliyatini amalga oshirishda ahamiyatli rol o‘ynaydi. Shunga qaramasdan sotsiologiya ushbu muammo bilan amalda shug‘ullanmaydi. Shaxs omili, shaxsning psixofiziologik imkoniyatlarini yetarli darajada inobatga olmaslik, qisman postindustrial, qisman industrial bo‘lgan globallashayotgan zamonaviy jamiyat sotsial kengligidagi shaxs raqobatbardoshligi istiqbolining sotsiotabiiy asoslari, jihatlari tadqiqot qilinmasligiiga olib keldi. O‘qish ma’lum bir mutaxassislikni egallashga olib keladi, ta’lim esa metakvalifikatsiyaga, ya’ni yangi ilmlarni izlash va o‘zlashtirishni yengillashtiradigan bilimlar tizimini yaratishga izn beradi. Amerika fermerlari o‘rta ma’lumot hamda fermada ishlash tajribasini bergan

nafaqat yuqori malaka egasi bo‘lishsa-da, balki metakvalifikatsiyaga ham ega kishilar hisoblanadi, bu ularga kimga va qachon, masalan, yuristga, veterinarga, ta’minot bo‘yicha mahalliy agentga, universitetning o‘simliklar patologiyasi fakulteti xizmatchisiga, ulgurji xaridorga, meteorologga, mexanikka maslahat bilan murojaat qilishlari borasidagi yetarli bilimlarni bera oladi. Ko‘rinib turibdiki, metakvalifikatsiya garchi o‘zining shaxsiy tajribasidan yiroqda bo‘lsa-da, shaxsning kerakli ma’lumotlarni qidirib topishi va tatbiq etishi uchun imkoniyatlarni ochib berar ekan.

Ta’lim sotsial institut sifatida barcha darajalarda, jumladan, maktab va oliy o‘quv yurti sharoitida o‘zini murakkab ko‘p tarmoqli tizim – ijtimoiy tashkilot sifatida namoyon qiladi. O‘rta ta’lim darajasida u ta’lim vazirligi, joylardagi hududiy va shahar bo‘limlari, minglab maktablar, kollej va oliy o‘quv yurtlari, millionlab o‘quvchilar, talabalar, o‘qituvchilar va ular bilan bog‘liq xizmat ko‘rsatish mutaxassislarini o‘z ichiga oladi.

Raqobat sotsial jarayon sifatida iqtisodiy sotsiologiya doirasida o‘rganiladi va uning bir yo‘nalishi V.Radaev tomonidan ishlab chiqilgan bozor sotsiologiyasidir. “Raqobat – ikki va undan ortiq bozor ishtirokchisining o‘z imkoniyatlaridan kelib chiqib, ma’lum bir chegaralangan manbaga ega bo‘lish uchun qaratilgan harakatdir” - deb ta’kidlaydi V.Radaev [11; 320]. Iqtisodiyotga oid fanlarda raqobat – bu musobaqa bo‘lib, konkret bozordagi eng foydali sohadagi ishlab chiqarish munosabatlari subyektlari o‘rtasidagi kurashni anglatadi. Siyosatshunoslik fanida raqobat – bu siyosiy partiyalar o‘rtasidagi kurash bo‘lib, ularning har biri yetakchilik va hokimiyatda o‘zlarining vakillarini qo‘yishga intilishadi. Bundan tashqari har qanday jamoat ishlarini amalga oshirishda, rahbarlik huquqini qo‘lga kiritishda hamma da’vogarlik uchun bahslashadi. Shu bilan birgalikda bahslashuvchi bir tomonlama o‘zining bahslashuv jarayonida qo‘lga kiritmoqchi bo‘lgan sotsial rolini bajarish uchun eng yaxshi sifatlarini namoyon qilishga harakat qiladi, boshqa tomondan ushbu rolga boshqa da’vogarlarni yanada jo‘shqin faoliyatga undaydi. Masalan, qator mualliflar siyosat maydonini siyosiy kuchlar munosabatlarining boshqaruvda tutgan o‘rni, hokimiyat va ta’sir o‘tkazuvchi siyosiy kapitalga erishish mumkin bo‘lgan raqobat maydoni sifatida ko‘radilar.

Ijtimoiy hayot – bu, turli guruh odamlarining harakati, faoliyati, o‘zlarini yaqqol namoyon qiladigan, o‘ziga xos voqealar majmuidan iborat. Ijtimoiy-iqtisodiy guruhlar majmui butun jamiyat, hudud yoki qishloqlar, xo‘jalik tarmoqlari, tashkilotlar ko‘lamida ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishni tashkil etadi. Sotsiologiya sohasida sotsial raqobatni o‘rganish konseptual ta’limotni yaratish va instrumental yondashuvni ishlab chiqishga muhtojdir. Sotsial raqobat tushunchasi yoshlar sotsiologiyasining muammoli masalalari doirasiga kiritilishi kerak. Mazkur holatda birinchidan, yoshlar sotsiologiyasining zamonaviy holatini tarixiy-mantiqiy asos bilan tadqiq etish, ikkinchidan esa uning predmet maydonini tashkil etuvchi statistik va muloqot doirasiga e’tibor qaratish lozim.

O‘quvchi yoshlarning xulqiy strategiyasida raqobat manbalari ob’ektiv ijtimoiy voq’elik bo‘lib, u yoshlarning mehnat bozori, ta’lim olishi, iste’molchilik sohasidagi raqobat hulqini sub’ektiv omillar vositasida qarama-qarshilik bilan ajratib turadi. Bir tomondan, umumiy sotsial kontekst sharoitlari va holatlari harakatlansa, ikkinchi tomondan shaxsning ichki tabiatiga ta’sir etuvchi omillar paydo bo‘ladi, jumladan: o‘quvchi yoshlarning ijtimoiy va mehnat faolligi, hulqiy faoliyati asosini tashkil etuvchi tabiiy iqtidor, qobiliyat, bilimlar, ko‘nikmalar yuzaga keladi. Shaxs raqobatbardoshligining sotsial asoslari iste’mol ierarxiyasi modeli bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, professional va ijtimoiy darajaga ega bo‘lgan shaxs raqobatbardoshligini yuzaga keltiradi. Uning yuksak miqyosda raqobatchilik faoliyatini ko‘rsatib beruvchi omillar atrofdagilar tomonidan tan olinish, maqom va hurmatga ega bo‘lishlik, o‘zining faollikka intilishi, biologik, ruhiy va ma’naviy imkoniyatlarining oshishi bilan namoyon bo‘ladi.

Shaxsdagi raqobatbardoshlikning paydo bo‘lishida sotsial guruh yoki sotsiumning madaniy asoslari muhim ahamiyatga ega. Bu inson tomonidan hissiyot missiyasini, shaxs hayotining asosiy o‘rnini belgilab beruvchi, ya’ni strategiya asosida nafaqat yashashni ta’minlash, balki ustuvorlik va raqobatbardoshlikka intilish mazmunini qidirish bilan bog‘liqdir. Ijtimoiy raqobatlashuvning takomillashuv istiqbollari O‘zbekistonda barcha islohotlarni yanada tezroq va samaraliroq amalga oshirish, demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, o‘z-o‘zini boshqarish tizimlarini takomillashtirish va oxir oqibatda aholining turmush darajasini oshirish imkonini yaratadi. Demak, ijtimoiy raqobat jamoatchilikning umumiy nuqtai nazari uchun asos vazifasini o‘tar ekan, mazkur asosning mustahkam yohud zaifligiga ko‘p narsalar bog‘liq bo‘ladi. Bu xususda Beruniy shunday degandi: “Ojiz asoslarga ega bo‘lgan g‘oyalar, fan va sohalar ojiz natijalarni keltirib chiqaradi. Ulardan kelib chiquvchi xulosalar haqiqiy ilmlarga nisbatan

chalkashdir” [12; 260]. Binobarin, kishilarning jamoada uzoq yillab yonma-yon turib mehnat qilishlari, bir xil yo‘nalishdagi ish bajarishlari, hayot tashvishlarini hal etishga deyarli bir xil vaqt sarflashlari, o‘zaro yaqin iqtisodiy-maishiy ahvol ularning intellektual-ma’naviy darajalari, hissiy-emotsional holatlari va hatto estetik didlari, qiziqish-u intilishlarining o‘zaro mushtarakligini ta’minlab beradi. Muayyan voqea xususida qa’tiylashgan raqobatlashuv jamoa va jamoadan chetdagi shaxslarning fikr-qarashlari, yohud mustahkam harakatlanishida muhim rol o‘ynaydi.

**Xulosa.** Yuqoridagilardan kelib chiqib, ta’kidlash mumkinki, bugungi kunda maktab o‘quvchilarining istiqbol hayot rejalarini belgilashda raqobatbardoshltik asosida ichki mehnat bozoriga o‘rgatish maqsadga muvofiq bo‘lardi. Tadqiqotchilar yoshlar muammosi masalalarini davomiy ko‘tarar ekanlar, bunda ijtimoiy raqobatlashuv mavzusi alohida mazmun kasb etadi. O‘quvchilarning intellektual salohiyati, kasbiy mahoratlari, bilim va ko‘nikmalari o‘tgan davrlardan boshlab davlat tomonidan munosib rag‘batlantirilib kelinmoqda. Ularga ajratilgan imtiyozli kreditlar, turli tanlovlar, davlat grandlari, yangi bo‘sh ish o‘rinlari yaratish kabi harakatlar mamlakat rahbari tomonidan qat’iy tartib asosida nazoratga olingan. Bu o‘z navbatida, yoshlarning kelajakka bo‘lgan ishonch darajasini oshishiga, istiqbolda intellektual va kasbiy savodsizlikka uchramasligiga yordam beradi. O‘quvchilarni maktab yoshidan boshlab mehnat bozoriga o‘rgatish, ularni ish bilan ta’minlash, ishziz fuqarolar sonini kamaytirishda eskicha tarzdagi e’lon va shiorlar bugungi kunga kelib o‘zini oqlamay qoldi. Uning asosiy sabablaridan biri sifatida jamiyat a’zolari, xususan, yoshlarning maktab davridan boshlaboq sog‘lom raqobatlashuv immunitetini sayoz shakllanganligida bo‘lib qolmoqda.

## Adabiyotlar


1. Абдураҳманов Қ.А. Меҳнат иқтисодиёти. – Тошкент: Меҳнат, 2009. – Б. 54.
2. Ясин Е., Яковлев А. Конкурентоспособност и модернизация российской экономики // Вопросы экономики. 2004. № 7. – С. 67.
3. Хруцкий В.Е., Кориеева И.В., Автухова Е.Э. Современный маркетинг. – М., 1991. – С. 251.
4. Сабецкая Г.Р. Система показателей конкурентоспособности потребителских товаров // ЭКО. 2000. № 4. – С. 87.
5. Рохлшстров С.Н. Социологические концепции конкуренции. – М., 2000 – С. 43;
6. См.: Митина Л.М. Психология развития конкурентоспособной личности. – М.; Воронеж, 2002. – С. 152.
7. Радаев В. Социология рынков; к формированию нового направления. –М.: ГУ ВШЭ, 2003. – С. 320.
8. Зубок Ю.А., Чупров В.И. Молодеж в обществе риска. –М., 2001; Зубок Ю.А. Феномен риска в социологии. Опыт исследования молодёжи. – М.: Мысл, 2007. – С. 18.
9. Рохлшстров С.Н. Социологические концепции конкуренции. –М., 2000. – С. 51.
10. Митина Л.М. Психология развития конкурентоспособной личности. – М.; Воронеж, 2002. – С. 14.
11. Радаев В. Социология рынков: к формированию нового направления. – М.: ГУ ВШЭ, 2003. – С.320.
12. Беруний Абу Райхан. Избранные произведения. – Ташкент: Фан, 1966. – С. 260.

# SAMARQAND UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC REPORTS

Texnik muharrir **Sh.Xoliqulov**

**Muharrirlar:**

I.Sulaymonov - fil.f.d., dotsent
E.Arziqulov - f.-m.f.d., dotsent
O.Yusupova - fil.f.n., dotsent

**Mas'ul muharrir:**

**A. Sh. Yarmuxamedov** - f.-m.f.n.

Muassis: Samarqand davlat universiteti Manzil: 140104,
Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
Telefon: (0 366) 240-38-47, Faks: (0 366) 239-13-87 e-mail:
axborotnoma.uz
SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi. Bosishga 30.05.2026-yilda ruxsat etildi. Qog'oz o'lchami A-4. Nashriyot hisob tabog'i 10,00
Buyurtma raqami 845 Adadi 30 nusxa.

ISSN 2181-1296